

*Zaynabiddinov Komiljon Adiljonovich  
"Sayyora favvorasi" korxonasi  
ijrochi direktori*

*Ergashev Sirojiddin Abdug'offorovich  
Andijon davlat universiteti,  
Geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi*

## **ANDIJON VILOYATIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI HUDUDYIY BAHOLASH VA SWOT-TAHLILI.**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada, paxta-to'qimachilik klasterlarini hududiy tahlili va baholash amalga oshirilgan. Andijon viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlari SWOT- tahlili amalga oshirilgan.*

*Kalit so'zlar: tabiiy omillar, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik omillar, qo'shimcha qiymatli maxsulot yaratish, SWOT-tahlili, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish, innovatsion faoliyat, boshqaruvni tashkil etish, ishlab chiqaruvchi hamkor tashkilotlar hamkorligi.*

*Зайнабиддинов Комилжон Адилжонович  
Предприятие " Sayyora favvorasi "   
исполнительный директор*

*Эргашев Сирожиддин Абдугоффорович  
Андижанский государственный университет,  
Старший преподаватель кафедры географии*

## **РЕГИОНАЛЬНАЯ ОЦЕНКА И SWOT-АНАЛИЗ ХЛОПКОВОГО ТЕКСТИЛЬНОГО КЛАСТЕРА АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ.**

*Аннотация: В данной статье проведен региональный анализ и оценка хлопково-текстильных кластеров. Проведен SWOT-анализ хлопково-текстильных кластеров Андижанской области.*

*Ключевые слова: природные факторы, экономико-социальные и демографические факторы, создание продукции с добавленной стоимостью. SWOT-анализ, территориальная организация производства, инновационная деятельность, организация управления, сотрудничество производственных организаций-партнеров.*

*Zainabiddinov Komiljon Adilzhonovich  
Executive Director  
enterprise "Sayyora favvorasi"*

*Ergashev Sirozhiddin Abdigofforovich  
Andijan State University,*

*Senior Lecturer, Department of Geography*

## **REGIONAL ASSESSMENT AND SWOT ANALYSIS OF COTTON TEXTILE CLUSTER IN ANDIJAN REGION.**

**Abstract:** *This article provides a regional analysis and assessment of cotton-textile clusters. A SWOT analysis of cotton-textile clusters in Andijan region was carried out.*


**Key words:** *natural factors, economic, social and demographic factors, creation of value-added products. SWOT analysis, territorial organization of production, innovation activity, management organization, cooperation of partner production organizations.*

**Kirish:** Mamlakatimiz barcha sohalarini birdek rivojlanishini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston-2030" strategiyasi ishlab chiqildi va hayotga izchillik bilan tadbiiq qilinmoqda. Strategiyaning 1-ilovasida mamlakat eksport salohiyatini ko'tarish maqsadida alohida band kiritilgan. "Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish" maqsadi belgilangan. Yanada aniqroq aytganda, eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish. Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish[1] maqsadlari belgilab olingan. Aynan yengil sanoatda klasterlar shu maqsadni amalga oshirishda peshqadam bo'lib kelmoqda.

**Adabiyotlar tahlili:** Klaster atamasi fransuzcha so'z bo'lib "panja", "bosh", "bog'lam", "guruh", "to'planish", "turg'un" ma'nolarini bildiradi. Klaster nazariyasiga oid ilk fikrlar M. Porteriga tegishli bo'lib uning fikriga ko'ra, "Klaster" bu- ma'lum hududda o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta korxonalarining to'plamidan iborat bo'lgan (asosiy vositalarni yetkazib beruvchilar, maxsus xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar, mol yetkazib beruvchilar, ilmiy tadqiqot muassasalari) bir-birini raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi va o'z navbatida, klasterni ham rivojlanishini ta'minlaydigan o'zaro manfaatli hamkorlar jamlanmasidir[2,3,4,5,6]. Maykl Yujin Porter fikri bo'yicha, hududiy klasterlarni shakllantirish uchun quyidagi omillar talab qilinadi: cheklangan geografik hududda barcha klaster ishtirokchilarining konsentratsiyasi; mazkur mintaqada, klasterni shakllantirishga va korxonalarini qo'llab quvvatlash va xizmat ko'rsatishga yordam beradigan raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lgan yetakchi kompaniyalarning

mavjudligi; ishtirokchilar o'rtasida hamkorlik muvofiqlashtirish; klaster tarkibiga, mahalliy darajada hamkorlik qilish orqali mintaqalararo darajada raqobatlashish uchun, klasterning "yadrosi"ni tashkil etadigan ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'lim muassasalari, turli professional va jamoat birlashmalarini olishi mumkin [2,3,8]

**Asosiy qism:** Klaster boshqaruv tizimini joriy etishda yagona qolip mavjud emasligini tushungan holda mavjud tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib nazariy asoslarni amaliyotga joriy etish lozim[9]. Paxta-to'qimachiilik klasterlarini hududiy o'rganish o'ziga xos tartib va yondashuvni talab etadi. Hududiy majmuada ishlab chiqarish sikli xom-ashyo yetishtirishdan boshlanadi, ekin turlarini tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqib joylashtirish olinadigan maxsulot sifati va xajmiga ta'sir ko'rsatadi. Tuproq tarkibi, ekin maydonini nishabligi, litologik tarkibi, musbat haroratlar yig'indisi, atmosfera namligi, suv resurslari bilan ta'minlanganligi haqidagi ma'lumotlar olish bilan tadqiqot boshlanadi. Yuqorida ta'kidlaganmizdek xom-ashyo, mehnat resurslari, transport yengil sanoat korxonalarini hududiy tashkil etishga birlamchi ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Bu omillar yengil sanoatning turli tarmoqlari uchun turlicha ta'sirga ega. Ilmiy tadqiqotda bu omillarni qay darajada ta'sirga ega ekanligini aniqlash va shunga ko'ra tizimning tarkibiy qismlarini joylashtirish yuzasidan taklif tavsiyalar ishlab chiqish kerak bo'ladi. Boshqaruvni to'g'ri tashkil etish mavjud sharoitdan kelib chiqib shakllantirib boriladigan jarayon. Ilmiy tadqiqot davomida hududning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik hususiyatidan kelib chiqib boshqaruv tizimini shakllantirib borilishi yuzasidan tavsiya ishlab chiqish lozim. Klaster ma'lum bir hududda ishlab chiqarish tarmoqlarini uyg'un joylashuvi hisoblanar ekan mavjud tarmoqlar orasidagi aloqalarni tartibga solish ular orasidagi davomli aloqalarni o'rganish katta ahamiyatga ega. Geografik omillarni o'rganish tashkiliy masalalarni tahlil qilish, baholash va kartalashtirish bilan hududda va tizimdagi mavjud muammo va o'zgarishlarni ko'rish mumkin. SWOT-tahlili orqali hududga klaster tizimini joriy etish yuzasidan maqsadli dasturlar yaratish va amaliyotga joriy etish bilan ilmiy tadqiqotni so'ngi bosqichi yakunlanadi.



**Andijon viloyati paxta-to'qimachilik klasterlarini kuchli va kuchli tomonlarini, imkoniyatlar va tahdidli tomonlarini aniqlashga asoslangan SWOT tahlili**

	<b>Kuchli tomonlari</b>	<b>Kuchsiz tomonlari</b>
<b>Tabiiy sharoit</b>	Paxta xom-ashyosi yetishtirish uchun tuproq sharoiti va iqlim sharoit mos, mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Viloyatning orografik tuzilishi sug'orma dexqonchilik uchun qulay. Yerni meliorativ holatini yaxshilash uchun kerakli texnikalarga ega	Klaster kompleks ish tashkil etganligi uchun ba'zi hollarda yerga bo'lgan munsobat o'zgarishi mumkin
<b>Transport</b>	Klasterga birikkan korxonalarining biri-biriga yaqin joylashgani va paxta xom-ashyosini shu yerning o'zida to'liq qayta ishlashga erishishi transport xarajatlarini kam bo'lishiga olib keladi. Logistika markazlari tashkil etadi	Tayyor maxsulotni xorijga yetkazib berishda kerak bo'ladigan transport turlariga ega bo'la olmaydi. Transport to'rini tashkil etishda imkoniyati cheklangan ya'ni ta'sir doirasida shakllantira oladi
<b>Mexnat resurslari</b>	Mexnat resurslarining xarakati yaxshi, mexnat taqsimoti yaxshi yo'lga qo'yilgan. Malakali mexnat resurslari yetarli. Mexnat resurslari malakasini oshirishga alohida etibor qaratilgan	Mexnat faoliyatining mavsumiyligi. Mexnat resurslarini yangicha tizmiga moslashuvchanligi sekin kechadi
<b>Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish</b>	Geografik yaqin hududlarda, texnologik bog'langan, klaster manfaatlariga mos, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik vaziyatdan kelib chiqib joylashtiriladi. O'sish qutblarini shakllantiradi	Ma'muriy chegaralar bilan chegaralangan, hamkor tashkilotlarni bir hududda joylashtirish mumkin emas
<b>Innovasion faoliyat</b>	Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi yuzaga keladi. Ta'lim talab va taklif asosida shakllanadi. Ilmiy tadqiqot institutlari aniq maqsadli qo'llab quvvatlanadi. Venchur korxonalar paydo bo'ladi	Fan yutuqlarini ayniqsa to'qimachilik mashinasozlikda erishilgan yutuqlarni moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun chettdan yordam kerak bo'ladi
<b>Investisiyani jalb qilish</b>	Hudud tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik imkoniyatlarga ega. Jahon bozorida pirovard maxsulotga domiy talab mavjud. Asosiy fondlarni barpo qilish boshqa sanoat tarmoqlariga nisbatan arzon	Jahon va mintaqa bozorida qiyosiy ustunlikka ega bo'lish qiyin, mavsumiylik, texnologik jarayonni bosqichlarini ko'pligi tufayli daromadning kechikishi, sanoatning ayrim tarmoqlariga nisbatan

		samaradorligini pastligi, yuqori hosil olish kafolatmaganligi
<b>Hudud va tarmoq</b>	Ekspozitsiya salohiyati yuksaladi. Paxta xom-ashyosi miqdori va uni qayta ishlashdagi mutanosiblik yuzaga keladi. To'liq sikllik ishlab chiqarish shakllanadi. Qishloq xo'jaligi zamon talablari asosida rivojlanadi. Moliyaviy imkoniyatlar ortishi tufayli asosiy fondlar xajmi ortadi. Aholi daromadlari va bandligi ortadi. Iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmalar shakllanadi	Tarmoq korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayoni umumiy maqsadga bo'ysundirilganligi tufayli ba'zi korxonalar o'zining natijasi uchun emas umumiy natija uchun ishlaydi. Kompleks iqtisodlashuv natijasida bozordagi arzimas o'zgarishlarga ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi
	<b>Imkoniyat</b>	<b>Tahdid</b>
<b>Xom-ashyo</b>	Xom-ashyoni o'zi yoki hamkor ishlab chiqaruvchilar bir hududda yetishtiradi	Xom-ashyo sifati kuzgi ob-xavo sharoitiga bog'liq. Hosildorligi mavsumdagi ob-xovoga bog'liq va xom-ashyo tan narxida kutilmagan o'zgarishlar bo'lishi mumkin
<b>Boshqaruvni tashkil etish</b>	Mexnat resurslariga bo'lgan talab ortadi. Boqimanda ish o'rinlari keskin kamayadi. Mexnat resurlarining xarakati tezlashadi. Iqtisodiyotda katta kuch sifatida umumiy muammolarni tez hal qiladi. Konsalting firmalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali istemol bozori yaxshi o'rganiladi. To'liq iqtisodiy tizim joriy etiladi. Davlatning ishtiroki kamayadi	Boshqarishda katta samara bergan usul bu hududda aksincha bo'lishi mumkin. To'liq iqtisodiy tizimni joriy etilganligi tufayli bozordagi sharoitni o'zgarishi keskin qarorlar qabul qilishga sabab bo'ladi. Tez fursatlarda yirik korxonalarni barpo etish ulrning keyingi faoliyatini nazorat qilishni qiyinlashtiradi
<b>Ishlab chiqaruvchi tashkilotlar hamkorligi</b>	Paxta-to'qimachilik klasterlarini egasi bir bo'lishi ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni bir maqsadga bo'y sundiradi. Umumiy infratuzilmadan foydalanish iqtisodiy samaradorlikga olib keladi. Moliyaviy muammolarni birgalikda hal qilinadi bir maqsad sari intiladi. Venchur korxonalar, ilmiy tadqiqot institutlarini tashkil etish hamda marketing bo'limlarini yaxshi ish tashkil etishi katta imkoniyat beradi	Hududiy majmuaning bir-biriga qattiq bog'lanishi va ishlab chiqarish jayonini yirik ko'lamda amalga oshirilishi tashqi ta'sir vaqtida sharoitga moslashuvchanlikni pasaytiradi
<b>Aloqador tashkilotlar hamkorligi</b>	Ishlab chiqarishda bilvosita ishtirok etadigan korxonalar bilan kelishuvlar faqat iqtisodiy manfaatlarga tayanadi hamda yangi bosqichga ko'tariladi.	Ma'muriy tizim ta'siri kam bo'lganligi uchun aloqador tashkilotlarda ishlab chiqarish jaryonidagi o'zgarishlar yoki

	Ba'zi aloqador tashkilotlarning hududiy yaqinlashuvi kuzatiladi	silkinishlar klaster tizimiga tez ta'sir qiladi
--	---	---

Yuqoridagi SWOT- tahlilining ba'zi bir jihatlariga izox berib lozim. Paxtani ekishdan tortib undan tayor maxsulot yaratishgacha bo'lgan jarayonda yerni egasini topish zarur va bu bo'g'in o'z mehnatidan manfaatdor bo'lishi kerak. Klaster tizimidagi ishchi-xizmatchilarga alohida e'tibor kerak va bu e'tiborni xodim sezishi lozim, yangi tizm imkoniyatlarini tushintirish ularga iqtisodiy, ma'naviy yordam berish kerak bo'ladi. Andijon viloyatida hududiy tashkil etilayotgan paxta-to'qimachilik klasterlari ma'lum bir ma'muriy hudud ichida tashkil etilmoqda bu holat klasterlar orasida raqobatga ta'sir qiladi. Shu sababidan klasterlarni aniq bir chegarada tashkil etishni olib tashlash kerak, tuzilma hududiy kengayib yirik transmilliy korporasiyaga aylansin shunda jahon miqiyosidagi brendlar yaratiladi. Mintaqa va jahon miqiyosida ustunlikga ega bo'lish qiyin buning eng asosiy sababi, to'qimachilik bilan bog'liq mashinasozlik zavodlari bugungi kun talabi darajasida ishlash imkoniga ega emasligi, bu esa daromadning katta qismi chet elga chiqib ketishiga sabab bo'ladi va oqibatda tannarx ortadi. Shu sababdan kichik sexlar barpo qilish bu sexlar butlovchi qismlar tayorlashi kerak bo'ladi, keyinchalik bu sexlar kengayib borishi lozim. Imkon bo'lsa bu sexlar klasterning ilmiy tadqiqot markazlari bilan birikib ishlab chiqaruvchining o'ziga xos ustun jihatlarini yaratishi lozim. Paxta-to'qimachilik klasterlariga eng katta taxdid bu ob-havoning qanday kelishi, urug'chilikni rivojlantirish klasterga bu tahdiddan qisman qutilish imkoniyatini beradi. Klasterlarda ishlab chiqarish sikllining uzoq davom etishi va yirik majmua shakllanishi ba'zi xollarda bozordagi o'zgraishlarga tez moslashuvchanlikni pasaytiradi. Bir-biriga bog'liq turli tarmoqlarni bir maqsad yo'lida biriktirish davomida, bir tarmoqdagi o'zgarish boshqa tarmoqlarga ham tez va kuchli ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa:** Klasterlarni iqtisodiy geografik tahlil etish, hududiy-tizimli tahlil qilishni talab etadi;

- Paxta-to'qimachilik klasterlarini hududiy tashkil etishda tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik omillarni tahlil qilish;
- Ishlab chiqaruvchi tarmoqlar aloqalarini tahlil qilish;



- Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish natijasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni baholash;
- Baholash, mavzuli kartalar yaratish, SWOT-tahlilini amalga oshirish;
- Majmuadagi mavjud va kutiliyotgan muammolarni aniqlash va shu yuzasidan aniq maqsadli dasturlar ishlab chiqish.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF158-son Farmoniga 1-ILOVA
2. Портер Майкл. Конкуренция: Пер. с англ. / Майкл Портер. – М. и др.: Вильямс, 2003. 605 с.
3. Портер М.Э. Конкуренция. Пер. с англ. - М.: Издат. Дом «Вильямс», 2001.
4. Баранчиков Е.В., Горохов С.А., Козоренко А.Е. и др. под ред. Баранчикова Е.В. География – 6 е-изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия» 2009. – 480 с.
5. Бергман Э., Фезер Э. Индустриальные и региональные кластеры. М.: Деловой экспресс, 2014. - 222 с.; 1.1 бор
6. Костенко О.В. Региональная кластерная политика: – Киров: Вятская ГСХА, 2016. - 162 с.; 1.1 бор
7. Лаврикова Ю.Г. Кластеры как рыночный институт пространственного развития экономики региона. Автореф. дис. докт. экон. наук: – Екатеринбург, 2009. - 47 с.; 1.1 бор
8. Портер М.Э. Международная конкуренция. - М.: Международные отношения, 1993. - 896 с.; 1.1 бор
9. Ergashev S.A. Andijon viloyatida klasterlar tashkil etishning hududiy jihatlari.- "Экономика и социум" №7(110) 2023